

О‘ЗBEKISTONDAGI IQLIMLASHTIRILAGAN AYRIM MANZARALI О‘SIMLIK LARNING SHIFOBAXSHLIK XUSUSIYATLARI.

S.A.Mamatqulova Kimyo kafedراسи dotsenti.

G.M. Maxsudova ekologiya kafedراسи o‘qituvchisi.

T.E. Usmanova ekologiya kafedراسи o‘qituvchisi.

Annotatsiya; Hozirgi vaqtda shaharlarda aholi yashash sharoitlarini yuqori darajaga ko‘tarish uchun ko‘plab dam olish maskanlari, shahardagi mikroiklimning yaxshilash va sanitar-gigienik holatini sog‘lomlashtirish uchun yashil hududli maydonlar tashkil etilmoqda. Shahar mikroiklimini yuzaga keltirish va sog‘lomlashtirishda avtomobil yo‘llari yoqalariga ekilgan manzarali o‘simliklarning ham ahamiyati katta. Avtomobil yo‘llarini ko‘kalamzorlashtirish maqsadida ekilgan daraxt va butalar manzarali ko‘rinishi bilan birga, ushbu hududning iqlimiga, tuprog‘iga, tutunlu, gazli va changli muhitiga ham chidamli bo‘lishi, arxitekturaviy talablarga ham javob berishi kerak.

Annotation; currently, in order to raise the living conditions of the population in cities to a higher level, many recreation areas are being created, green areas are being created to improve the microclimate in the city and improve the sanitary and hygienic condition. Ornamental plants planted on Highway collars are also important in the creation and wellness of the urban microclimate. Trees and shrubs planted for the purpose of greening highways should, along with their scenic appearance, also be resistant to the climate, soil, smoky, gaseous and dusty environment of this area, as well as meet architectural requirements.

Kalit so‘zlar: Shahar, flora, qarag‘ay, qoraqarag‘ay, tilog‘och, kedr, sarv archasi, zarang, jo‘ka, eman, qayin, lola daraxti, oq akatsiya, gledichiya, o‘simlik.

Keywords: City, flora, pine, spruce, larch, cedar, cypress spruce, Maple, Linden, oak, birch, tulip tree, White Acacia, gledicia, plant.

Kirish: Istalgan biror mamlakat florasining tarkibi bilan tanishsak, u erda albatta tabiiy holda o‘sovchi o‘simliklar bilan birga turli mintaqalardan keltirilib introduksiya qilingan o‘simliklarni ham ko‘rishimiz mumkin. Biror mamlakat yoki hududga, bu yerning tabiiy sharoitida ilgari o‘smagan daraxt buta o‘simliklarini olib kelib o‘stirish introduksiya deyiladi.

Ma‘lumotlarga ko‘ra MDH davlatlari florasidagi 2890 turdan ortiq o‘simlik bo‘lib, uning 2000 turi introduksiya qilingan. O‘zbekistonga ham keyingi yuz yillikda qarag‘ay, qoraqarag‘ay, tilog‘och, kedr, sarv archasi, zarang, jo‘ka, eman, qayin, lola daraxti, oq akatsiya, gledichiya va boshqa ko‘plab daraxt-buta turlari introduksiya qilingan. Ulardan o‘rmon melioratsiyasida, shaharlarni va hiyobonlarni

obodonlashtirishda va ko`kalamzorlashtirishda keng foydalanilmoqda. O`simliklar introduksiyasi tabiiy va sun`iy bo`lishi mumkin. Tabiiy introduksiya qushlar, hayvonlar, shamol va suv omillari vositasida amalga oshadi. Ushbu jarayonni amalga oshirilishida tarixda dengiz yo`llarini ochilishi katta sabablardan biri qilib ko`rsatiladi. Sun`iy introduksiya asosan inson ta`sirida ongli ravishda ilmiy asoslarda tayangan holda ro`y beradi.

Daraxt va buta o`simliklar bir geografik zonadan ikkinchi geografik zonaga ko`chirilganda, yangi sharoitlar ya`ni iqlim va tuproq sharoitlariga moslashib keta olgandagina muvaffaqiyatli o`stiriladi va tarqatiladi. Bu hol ularning tabiiylashishi deyiladi. Aksincha ko`p hollarda o`simliklar yangi sharoitlarga moslasha olmaydi, qurib qoladi, nobud bo`ladi. Bunday sharoitlarda uning o`sishi uchun qo`shimcha choralar ko`riladi va qulay sharoitlar yaratiladi. Taniqli olim I.V.Michurin o`simliklarni introduksiya qilishda ularni urug`idan ko`paytirish yoki yosh urug` ko`chatlari va nihollarini keltirib ekishni tavsiya etgan.

Yosh o`simliklar yangi sharoitlarga yaxshi moslashadi, tez rivojlanadi va urug` berish yoshiga tezroq yetadi. Umuman olganda daraxt va buta o`simliklarining yosh ko`chatlarida moslashuvchanlik xususiyati yaxshi rivojlangan bo`ladi. Agar introduksiya qilinayotgan o`simlikning qimmatli va foydali xususiyatlari yangi sharoitlarda namoyon bo`lmasa, ya`ni yaxshi o`smasa va hosil bermasa, ushbu o`simlikka faol ta`sir ko`rsatiladi, uning tabiati o`zgartiriladi, seleksiya ishlari olib boriladi va yangi duragaylar yaratiladi. Buning uchun yomon o`sgan tur bilan yaxshi o`sayotgan tur o`zaro chatishtiriladi, uning irsiy belgilari o`zgartirilib, yangi duragaylar yaratiladi. Manbalarda qayd etilishicha, xalqimiz qadim zamonlardanoq noyob, foydali va dorivor o`simliklarni bilishga va o`stirishga qiziqqanlar. Ularning samarasi o`laroq, xalq tabobatida ko`plab xastaliklarga qarshi samarali foydalanib kelingan. Tarixiy ma`lumotlarda qayd etilishicha ajdodlarimiz mevali va manzarali bog` barpo etishda ham yuksak cho`qqilarga erishganlar. Masalan, Sohibqiron Temur barpo etgan bog`larning dovrug`i butun olamga taralgan. Amir Temur ushbu bog`larida ko`plab mamlakat elchilarini qabul qilgan. Bog`lari tuzilishiga ko`ra, ikki turga bo`lingan.

1) chorbog`lar –geometrik (to`rtburchak, to`g`ri to`rtburchak) shaklda bo`lib, har tomoni taxminan 1 km masofaga cho`zilgan. Sahnidan o`tgan ariqlar ularni teng 4 qismga ajratib turgan. Atrofidagi baland paxsa devorlarning har burchagida minora bo`lgan. Markazda saroy joylashgan. Bunday bog`larning darvozalari shahar tarafga qaratib qurilgan; 2) tuzilishi geometrik shaklda bo`lmagan, tabiiy daraxtzor va chakalaklar bag`rida barpo etilgan bog`lar. Bunday bog`lar hukmdor shikor (ov) qilishi uchun mo`ljallangan bo`lib, asosiy qismi tabiiy, asl holatida qo`l tekkizilmagan holda saqlangan. Ularning kichik bir qismigagina turli xildagi damolish uch ko`144shk, saroy va chodirlar qurilgan hovuzlar qazilib, favvoralar o`rnatilgan. Bu turdagi bog`larning o`simlik va hayvonot dunyosi nihoyatda boy bo`lgan.

O‘simliklar dunyosi, jumladan dorivor o‘simliklar ham tabiatning asl boyliklaridan biri hisoblaniladi. Shifobaxsh o‘simliklarning xosiyati qadim zamonlardanoq insonlarga ma’lum bo‘lgan va foydalanib kelingan. Kimyo fanining nihoyatda taraqqiy qilishi, ayniqsa yangi kimyoviy birikmalar, jumladan sintez qilish yo‘li bilan olinayotgan tez va yaxshi ta’sir etuvchi dori vositalari ishlab chiqarilayotganiga qaramay, dorivor o‘simliklar o‘z qimmatini xaligacha yo‘qotgani yo‘q, aksincha dorivor o‘simliklarga bo‘lgan talab yildan-yilga ortib bormoqda.

Ilmiy tibbiyotda ishlatiladigan dorivor preparatlarning ko‘plari o‘simliklardan ajratib olinadi. Tabobatda katta ahamiyatdga ega bo‘lgan alkaloidlar, glikozidlar, flavonoidlar, kumarinlar, saponinlar, efir moylari va boshqa moddalar ham o‘simliklardan ajratib olinadi. Quyidagi jadvalda manzarali o‘simliklarni tabobatda ishlatilishi keltirilgan.

№	O‘simlik nomi	Tabobatida ishlatilishi
1.	Ginko biloba	Bargidan olingan birikmalar nerf va qon tomirlari kasalliklarida, atreskleroz, xotirani yaxshilash va diqqatni jamlashda foydalaniladi.
2.	Magnoliya (Magnolia)	Novdalari va po‘stlog‘ida alkaloidlar, rutin, aniqlangan, gullari va mevasida flavonoidlar, mavjud. Bargidan tayyorlangan suyuq eksrakt qon bosimini pasaytiruvchi vosita sifatida qo‘llaniladi.
3.	Tuxumak yoki sofora (Sophora japonica L.)	Mevasi tarkibida flavonoidlar (rutin), vitamin B,S, bo‘yoq va boshqa moddalar bor.U vitamin P kabi ta’sir qilib, qon tomirlari mo‘rt bo‘lib qolishi oqibatida kelib chiqadigan kasalliklarnihg (gemorragik diatez, gipertoniya, ateroskleroz,va boshqalar) oldini olishda, mevasidan tayyorlangan nastoyka yiringli yaralarni va kuyganni davolashda ishlatiladi.
4.	Akatsiya oq akatsiya (Acacia Deal bata L)	Gullarida robinin degan glikozid va o‘rganilmagan yana boshqa bir glikozid bor, gullaridan tayyorlangan damlama issiqni tushiradi, balg‘am ko‘chiradigan vosita sifatida ishlatiladi. Yosh shoxlari po‘stlog‘idan tayyorlangan damlamani me‘da kasalliklarini davolashda ishlatiladi.
5.	Eman(Quer cus Robus L)	Xalq tabobatida o‘simlikning qaynatmasi ich ketganda, gastrit o‘pka sili, dizenteriya kasalliklarida hamda qon to‘xtatuvchi dori sifatida ishlatiladi.
6.	Jo‘ka (Tilia Cordata L)	Guli tarkibida efir moyi, tiliatsin va flavonoid glikozidlari, triterpen saponinlar, vitamin C, karotin, shilliq, oshlovchi va boshqa moddalar bor. Jo‘ka turlarining gulidan tayyorlangan

		damlama xalq tabobatida shamollash kasalliklarida terlatuvchi, qon oqishini to'xtatuvchi vosita sifatida qo'llaniladi. Damlamasi yana yo'talni, turli asab kasalliklarini va bosh og'rig'ini davolashda ishlatiladi.
7.	Pavloniya- (Poulowniya)	Anig'lanishicha Pavlovniya barglarida jigar , o't-pufagi va o'pka uchun juda yaxshi foydali ta'sir qiladigan moddalar bor . Xitoyda Pavlovniyani foydali xususiyatlarini oldingi zamonlardan juda yaxshi bilishadi , hozirda farmatseptika sanoatida ko'pgina dorilar ishlab chiqarilmoqda
8.	Soxta kashtan (Aesculus Hippocastanum L)	Soxtakashtan po'stlog'I tarkibida eskulin, fraksin glikozidlari, saponinlar, yog' , oshlovchi va boshqa moddalar, barg va gulida rutin flavonoidlar, pectin, urug'ida flavonoidlar, saponinlar, yog' , kraxmal, oshlovchi va har xil birikmalar bor.Xalq tabobatida soxtakashtan po'stlog'idan tayyorlangan qaynatma qorataloq, vabosil, bronxit, bezgak, bod, hamda ichakning yallig'lanishi natijasida ich ketganda va qon to'xtatuvchi dori sifatida ishlatiladi.
9.	Mushmulla (Mespilus)	Uning bargi va xom mevalari tarkibida oshlovchi moddalar bor,mevasi iste'mol qilinadi oshqozon va ichak kasalliklarga foydali ta'sir etadi.
10.	Rozmarin (Rosmarinus officinalis L)	Tibbiyotda yosh novdalari ishlatiladi, tarkibida efir moyi, triterpen birikmalari, alkaloidlar, oshlovchi va boshqa moddalar bor. Og'iz bo'shlig'i yallig'langanida uni chayish va chipqonni davolashda va bod kasalligini davolashda ishlatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Makhsudova, G. (2022). SHAELLING ECOLOGICAL CONSCIOUSNESS AND CULTURE IN SCHOOLCHILDREN. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(06), 66-73.
2. Feruzaxon, Q., & Mohinur, B. (2023). EKOLOGIK ONGNI TA'LIM TARBIYADA SHAKLLANISHI. *Journal of new century innovations*, 20(4), 3-7.
3. Gulnoraxon, M. (2023). FARG'ONA VODIYSI AHOLISINING TABIATDAN TEJAMLI FAYDALANISH AN'ANALARI. *Journal of new century innovations*, 20(4), 8-13.
4. Mukhammadjonovna, M. G. (2023). Formation of Ecological Consciousness in Education. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 16, 1-3.

5. Akbarova, M. X., Bekchonova, M. F., GOfurova, O. M., & Usmanova, T. E. (2021). The Medicinal Types Of Scutella (Lamiaceous) Group Spread Over Fergana Valley. *The American Journal of Applied sciences*, 3(04), 105-110
6. Abdullaeva, M. T., & Usmanova, T. E. (2022). Fundamentals of ornamental plant protection. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(1), 104-104.
7. Abdullaeva M. T., Usmonova T. E., Inomov H. E. Influence of number of seedlings and amount of fertilizers on the development of root system of winter wheat //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – Т. 10. – №. 10. – С. 805-809
8. Solijonovich, M. S. (2022). The role of engineering and communication infrastructure in the organization and development of the free economic zone. *Asia pacific journal of marketing & management review issn: 2319-2836 impact*
9. Solijonovich, M. S. (2022). The role of government bodies in the development of free economic zones. *International journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 impact factor: 7.429, 11(09), 132-137.*
10. Tadjibayeva Lolaxon Akbarali qizi. (2023). SELITEB LANDSHAFTLARDA TUPROQLARNING IFLOSLANISHI VA CHIQINDILAR MUAMMOSI. Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies, 2(4), 515–517. Retrieved from